

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAQIQATBEKOV ZAFARBEEK SHAVKATBEK O'G'LI

**YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA SPORTCHI KARYERASINI
REJALASHTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
po psixologicheskim naukam**

**Contents of Dissertation Abstract of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Ssienses**

Хақиқатбеков Зафарбек Шавкат о‘ғ‘ли

Yakkakurash sport turlarida sportchi karyerasini rejalashtirishning psixologik xususiyatlari3

Хақиқатбеков Зафарбек Шавкат угли

Психологические особенности планирования карьеры спортсмена в единоборствах.....23

Xakikatbekov Zafarbek

Psychological features of planning an athlete’s career in martial arts 45

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Spisok o‘publikovannyyx rabot

List of published works49

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMiy KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAQIQATBEKOV ZAFARBEK SHAVKATBEK O'G'LI

**YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA SPORTCHI KARYERASINI
REJALASHTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/P383 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Navbahor Shokirovna
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Fayziev Zohiddin Hasanboevich
psixologiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__»_____ kuni soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__»_____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «__»_____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, psixologiya
fanlari doktori, dotsent

N.B.Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori, dotsent

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi davrda sport sohasidagi erishilayotgan yutuqlar ko'lamining ulkanligi «yuqori sport natijalari davri» deb atashni ishonchli bo'la olishini ta'minlaydi. Bugungi kunga kelib, sport sohasida tobora ko'proq yangi rekordlar va yangi sport yulduzlari kashf qilinmoqda. Bu borada 2030 yilgi Osiyo o'yinlariga mamlakatimizning mezbonlik maqomiga ega ekanligi rasman e'lon qilinishi va Milliy o'zbek kurashi Afrika o'yinlari dasturiga kiritilganligi¹ yakkakurashning tobora ommalashib borayotganligini tasdiqlaydi. Shu bois yakkakurash sport turlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida sportchi karyerasini rejalashtirish omillarini tahlil qilish dolzarb muammolardan bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilayotgan tadqiqotlarda yakkakurash sport turlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida sportchi karyerasini rejalashtirish omillarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada sport arenalarida bugungi kunda urf tusiga aylanayotgan milliy kurashning boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, aholining barcha qatlamlarida sport turlari bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalarini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sportni yanada jadallik bilan rivojlantirish, professional sportchilarni karyerasini uzoq va davomli ravishda amalga oshirish uchun davlat tomonidan katta e'tibor berilib, zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish» (67-maqсадning, 2-3-bandlari)² va «O'zbekistonda sportning ommaviylikini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish» vazifalarining belgilanganligi sportchilar karyerasini rivojlantirish masalalarini ilmiy o'rganishga zarur va yetarli asos bo'la oladi.

2023 yil 1 maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni, 2020 yil 4 noyabrdagi PQ-4881-son «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 18 fevraldagi PQ-136-son «Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» Qarorlar, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22 avgustdagi 465-son «O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirish vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

¹ <https://uww.org/article/wrestling-fights-its-way-back-olympic-programme>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

rivojlanishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan R.A.Abdurasulov, D.N.Arzikulov, K.G.Atabekova, X.Sh.Barotov, A.S.Begmatov, Z.E.Gazieva, A.M.Nazarov, E.N.Nazarov, Dj.Sh.Nasirov, J.A.Pulatov, A.A.Sobirov, E.N.Sirliev, N.Sh.Usmonalieva, A.U.Xaitov, Z.H.Fayziev va boshqalar tomonidan sport faoliyati va sportchi shaxsiga doir psixologik masalalar, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish, bo'lg'usi sportchilarni saralash, tanlashga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan I.P.Volkov, G.M.Gagaeva, G.D.Gorbunov, E.P.Ilin, V.L.Marishchuk, V.A.Plaxtienko, A.T.Puni, P.A.Rudik, A.V.Rodionov, V.K.Safonov, T.N.Stambulova va boshqalar tomonidan sport psixologiyasida faoliyat, konkret sport turlarining psixologik xususiyatlari, sportning sportchilar rivojlanishiga ta'siri, sport natijalari darajasiga ta'sir etuvchi psixologik omillar, sport karyerasining akmeologik jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijlik psixolog olimlardan R.E.Smith & F.L.Smoll, F.Szabo, R.S.Vealey & J.L.Campbell, F.L.Smoll, R.A.Magil & M.J.Ash, C.L.Stevenson, T.Orlick & N.McCafferey, N.P.Barnett, F.L.Smoll & R.E.Smith, J.H.A.Van Rossum, G.C.Roberts, R.Carlson, L.M.Petlichkoff, P.Wylleman, P.De Knop, Y.Vanden Auweele & H.Sloore, M.Ewing va boshqalar tomonidan sport karyerasining boshlanishi va sport mahoratining eng yuqori darajaga qadar o'sishi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-126-raqamli «O'zbekiston yoshlarida psixologik yetuklik ko'rsatkichlarini o'rganishning psixodiagnostika vositalarini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va amaliyotga tadbiq etish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi yakkakurash sport turlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida sportchi karyerasini rejalashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yakkakurash sport turlarining psixologik xususiyatlarini aniqlash asosida sport karyerasini psixologik qo'llab-quvvatlashning umumiy modelini yaratish va uni amalga oshirish choralarini ishlab chiqish;

yakkakurash sport turlaridagi sportchining umumiy, maxsus va yagona darajadagi tizimli psixologik tavsifi uning sotsiumdagi maqomini, jinsiy va madaniyatlararo farqlariga ko'ra sport karyerasini rejalashtirishning mexanizmini aniqlash;

sport karyerasiga intilish motivlaridan salomatlik holati, sportdagi do'stlarning mavjudligiga ko'ra sport karyerasidan qoniqish tendensiyasining «xavfsizlik»,

«o‘zini ro‘yobga chiqarish» va «ijtimoiy tan olinishni saqlab turish» motivatsiya xususiyatlari bilan uyg‘un namoyon bo‘lishi tufayli sport yutuqlari darajasini belgilovchi «hayotiy tajriba», «moddiy ta‘minlanganlik» kabi psixologik omillarning dinamik xususiyatga ega ekanligini isbotlash;

yakkakurash sport turlaridagi sportchiga psixologik yordamning sport-sog‘lomlashtirishdan yuksak sport formasigacha bo‘lgan har bir bosqichda qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab oladigan hamda sportchini sportdan nafaqaga chiqish va boshqa martabaga o‘tish muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan «sportchi karyerasini rejalashtirish modeli»ni qo‘llashni takomillashtirish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida yakkakurash sport turlarida sportchi karyerasini rejalashtirish jarayoni olingan bo‘lib, tadqiqotda Toshkent shahridan 54 nafar, Namangan shahridan 66 nafar, Chirchiq shahridan 60 nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida yakkakurash sport turi bilan shug‘ullanayotgan turli yoshdagi terma jamoalarning amaldagi zaxira va nomzod vakillar – sportchilar - jami 180 nafar respondentlar jalb etildi.

Tadqiqot predmetini yakkakurash sport turlari bo‘yicha shug‘ullanayotgan sportchilar karyerasi shakllanishining tanlangan sport turiga, yoshga, ish stajiga oid individual-psixologik xususiyatlari, omillari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda kuzatish, suhbat, tizimli tahlil, modellashtirish metodlari, shuningdek, V.A.Ganzenning «Sportchi karyerasi – sintetik model», «Sportchi karyerasi – 1, 2 mantiqiy modellari», «Sportchi karyerasi – tuzilmaviy model» anketa-so‘rovnomalari, V.A.Yadovning tavsiyanomasi asosidagi «Mening sport karyeram» essesi, B.Breverning «Sportchi roli bilan indentifikatsiyalashuv» usuli, N.B.Stambulovaning «Ko‘p yillik sport karyerasiga erishishdagi sportchi-trener munosabatlari dinamikasi» metodikalaridan foydalanildi, olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, Pirsonning korrelyatsiya koeffisienti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yakkakurash sport turlaridan sportchi karyerasini rejalashtirish «sintetik tavsifda»gi birlamchi sintezdan «mantiqiy tavsifida»gi tahlilga, so‘ngra harakatni aks ettiruvchi «tuzilmaviy – akmeologik» tavsifli yuqori darajadagi sintezga o‘tishi tizimli tahlillash hamda differensiyalashtirish asosida dalillangan;

yakkakurash sport turlaridagi sportchining umumiy (ko‘pchilik sportchilarga xos sport karyerasining umumiy qonuniyatlari), maxsus (boks, erkin kurash, yunon-rum kurashi, dzyudo, milliy kurash kabi jangovor sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari) va yagona (taniqlik sportchining martaba xususiyatlari) darajadagi tizimli psixologik tavsifi uning sotsiumdagi maqomini, jinsiy va madaniyatlararo farqlariga ko‘ra sport karyerasini rejalashtirishning mexanizmi sifatida asoslangan;

sport karyerasiga intilish motivlari(salomatlik holati, ijtimoiy aloqalar kengligi, sportdagi do‘stlarning mavjudligi)ga ko‘ra sport karyerasidan qoniqish tendensiyasining «xavfsizlik», «ijtimoiy tan olinish», «mustaqillik», «o‘zini ro‘yobga chiqarish» va «ijtimoiy tan olinishni saqlab turish» kabi motivatsiya xususiyatlari bilan uyg‘un namoyon bo‘lishi tufayli «hayotiy tajriba», «moddiy ta‘minlanganlik» kabi sport yutuqlari darajasini belgilovchi psixologik omillarning dinamik

xususiyatga ega ekanligi isbotlangan;

yakkakurash sport turlaridagi sportchiga psixologik yordamning umumiy va xususiy texnologiyalari tizimi ularni sport-sog'lomlashtirish (sportdagi birinchi qadam)dan oliy sport mahorati (yuksak sport formasi)gacha bo'lgan har bir bosqichda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladigan hamda sportchini sportdan nafaqaga chiqish va boshqa martabaga o'tish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan «sportchi karyerasini rejalashtirish modeli»ni qo'llash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sportchi karyerasini rejalashtirishni tadqiq etishga oid anketa-so'rovnoma ishlab chiqilgan, yakkakurash sport turlari xususiyatlariga moslashtirib takomillashtirilgan;

sport karyerasini davriylashtirishning mantiqiy modeli mazmuniga sport zaxirasini tayyorlash hamda ularni «sport darajasi», «sportdagi yosh toifasi» va «sport razryadi va «sport unvoni natijalari» kabi ijtimoiy-psixologik omillarga oid metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

ixtisoslashgan sport maktablari, sport turlariga ixtisoslashgan davlat internat maktablari, oliy sport mahorat maktablari va olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida sport psixologlari uchun sportchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik korreksion dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga qo'llangan.

Tadqiqotda olingan natijalarning ishonchliligi tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslanganligi, xalqaro miqyosida e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilganligi, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilganligi va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash chiqilganligi va shu asosda psixologik interpretatsiya qilinganligi, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yakkakurash sport turlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish yuzasidan olingan ma'lumotlardan «Sport psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Psixologik korrektsiya» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jismoniy tarbiya va sport tizimi uchun boshqaruv kadrlarni tanlash va saralashning psixologik ta'minoti bo'yicha takliflardan sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish, tadqiqotda olingan natijalardan sport Federatsiyalari va Assotsiatsiyalari hamda Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida keng foydalanish mumkinligi izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yakkakurash sport turlarida sportchi karyerasini rejalashtirishning psixologik xususiyatlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

yakkakurash sport turlaridan sportchi karyerasini ijtimoiy-psixologik rejalashtirish «sintetik tavsifda»gi birlamchi sintezdan «mantiqiy tavsifida»gi tahlilga, so'ngra harakatni aks ettiruvchi «tuzilmaviy – akmeologik» tavsifli yuqori darajadagi sintezga o'tishini tizimli tahlillash hamda differensiyalashtirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 5 iyuldagi PM-33-son buyrug'i bilan «Sport psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 6 iyuldagi PM-33-m-son ma'lumotnomasi). Natijada, sport karyerasini o'rganishda birlamchi sintezdan tahlilga, so'ngra yuqori darajadagi sintezga o'tishdagi harakatni aks ettiruvchi sport karyerasining psixologik modellarini ishlab chiqishga imkon yaratilgan;

yakkakurash sport turlaridagi sportchining umumiy (ko'pchilik sportchilarga xos sport karyerasining umumiy qonuniyatlari), maxsus (boks, erkin kurash, yunon-rum kurashi, dzyudo, milliy kurash kabi jangovor sport turlarining o'ziga xos xususiyatlari) va yagona (taniqli sportchining martaba xususiyatlari) darajadagi tizimli psixologik tavsifi uning sotsiumdagi maqomini, jinsiy va madaniyatlararo farqlariga ko'ra sport karyerasini ijtimoiy-psixologik rejalashtirishning mexanizmi sifatida asoslangan xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 5 iyuldagi PM-33-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 6 iyuldagi PM-33-m-son ma'lumotnomasi). Natijada, yaratilgan modellar asosida yakkakurash sport turlaridan sport karyerasi va sportchining psixologik portretini psixologik tavsiflash ko'lami kengaytirilgan;

sport karyerasiga intilish motivlari(salomatlik holati, ijtimoiy aloqalar kengligi, sportdagi do'stlarning mavjudligi)ga ko'ra sport karyerasidan qoniqish tendensiyasining «xavfsizlik», «ijtimoiy tan olinish», «mustaqillik», «o'zini ro'yobga chiqarish» va «ijtimoiy tan olinishni saqlab turish» kabi motivatsiya xususiyatlari bilan uyg'un namoyon bo'lishi tufayli «hayotiy tajriba», «moddiy ta'minlanganlik» kabi sport yutuqlari darajasini belgilovchi psixologik omillarning dinamik xususiyatga ega ekanligini dalillovchi xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 5 iyuldagi PM-33-son buyrug'iga asosan «Psixologik korreksiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 60 iyuldagi PM-313-m-son ma'lumotnomasi). Natijada, sport karyerasining tarkibiy komponentlarini aniqlash, sport yutuqlari darajasini belgilovchi psixologik omillar dinamikasi tabiatini tushuntirish hamda sportchining tanlangan sport turiga nisbatan identifikatsiyalanish jarayonini tekshirishga muvaffaq bo'lingan;

yakkakurash sport turlaridagi sportchiga ijtimoiy-psixologik yordamning umumiy va xususiy texnologiyalari tizimi ularni sport-sog'lomlashtirish (sportdagi birinchi qadam)dan oliy sport mahorati (yuksak sport formasi)gacha bo'lgan har bir

bosqichda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladigan hamda sportchini sportdan nafaqaga chiqish va boshqa martabaga o'tish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan «sport karyerasini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash modeli»ni qo'llash orqali takomillashtirishga doir xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 5iyuldagi PM-33-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 6 iyulndagi PM-33-m-son ma'lumotnomasi). Natijada, sport karyerasini psixologik qo'llab-quvvatlash hamda sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida sportchiga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining mazmuni takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 4 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.


Dissertatsiyaning «**Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda sportchi karyerasini o'rganishning nazariy jihatlar**» deb nomlangan birinchi bobida karyera ijtimoiy psixologiya fanining tadqiqotlari predmeti sifatida ekanligi, sharq mutafakkirlari va qomusiy olimlarning kasbiy o'sish, martabaga erishish yuzasidan ijtimoiy-psixologik qarashlari, sportchi sport karyerasining bosqichlari va xususiyatlari muammosi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Sport karyerasini rivojlantirish muammosi kam sonli mutaxassislar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bobda N.B.Stanbulova, I.B.Ivanov, O.Y.Senatorova va S.N.Shixverdievlarning izlanishlari batafsil yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda sportchilarga psixologik yordam ko'rsatish usullarini tanlash, psixologik maslahatlar ishlarini tashkil etish, sport karyerasini yakunlash bosqichida bo'lgan sportchilarning ijtimoiy moslashuvi uchun psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratish masalalari

tadqiqi bayon etilgan hamda sport karyerasini yakunlash bosqichi yuzasidan ilmiy xulosalar tizimli tahlil qilingan.

Qomusiy olimlardan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, XI-XVI asrlarda yashab ijod etgan mutafakkir allomalardan Jaloliddin Rumiy, Abu Rayhon Beruniy, Mir Alisher Navoiy, Xorazmiy, XX asrning yetuk ma’rifatparvari Abdulla Avloniy va boshqalarning kasbiy kamolat, martabaga erishish yo‘llari to‘g‘risidagi qarashlari yoritib o‘tilgan.


Dissertatsiyaning «**Sportchi karyeasini ijtimoiy-psixologik rivojlantirishning metodologik jihatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida yakkakurash sport turlarida sportchi karyerasini rejalashtirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganishning empirik tadqiqot dasturi bayon qilingan, sport karyerasini rejalashtirishni o‘rganishga doir ijtimoiy-psixologik tadqiqot ob’ekti va predmetini aniqlashning nazariy-metodologik masalalari asoslangan, sport karyerasining ijtimoiy-psixologik mazmuni va uning nazariy tahlili keltirilgan, sport karyerasining psixologik xususiyatlari va algoritmini ijtimoiy psixologik tahlili berib o‘tilgan.



1-chizma. Muvaffaqiyatli sport karyerasi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalar

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida shuni alohida ta’kidlash kerak, ya’ni S.Danish, A.Petitpas & B.Hale sportchining muvaffaqiyatli sport karyerasi uchun zarur bo‘lgan quyidagi psixologik ko‘nikmalar ro‘yxatini tuzib chiqqan.

Bobning “Sportchi karyerasini rivojlantirishni ijtimoiy-psixologik o‘rganishning empirik tadqiqot dasturi” paragrafida ijtimoiy-psixologik tadqiqotni tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari tavsifi, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar tasnifi va ular haqida jamlanma ma’lumot, ilmiy tadqiqot bazasi tavsifi, respondentlari tanlovi, ularning ijtimoiy-demografik portretining batafsil tavsifi keltirilgan.



1-diagramma. Respondentlarning ijtimoiy-demografik tavsifnomasi.

Izoh: ChOPSTTM-Chirchiq Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, NOPSTTM-Namangan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, ROPSTTM-Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi

Tadqiqotda, qatnashgan 180 nafar respondentlar Toshkent, Namangan, Chirchiq shaharlaridagi Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanayotgan terma jamoalarining amaldagi, zaxira va nomzod vakillari jinsi, yoshi, demografik va ijtimoiy xususiyatlari bo‘yicha o‘tkazildi so‘rovnomaning statistik natijalari foizli tahlil qilingan. Unga ko‘ra, respondentlarning 85,17 foizi erkak va 15,83 foizi ayol kishi sanaladi. Yosh tahliliga ko‘ra, 11-13 yoshgacha bo‘lganlar –33,9 foizni; 13–15 yoshlilar – 29,4 foizni; 16–18 yoshlilar – 32,2 foizni; 19–20 yoshlilar – 4,40 foizni tashkil qildi. Chirchiq Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidan – 33,3 foiz; Namangan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidan – 36,7 foiz; Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidan – 30 foizdan iborat bo‘lgan respondentlar ishtirok etishgan.

Navbatdagi paragrafda, sport karyerasining psixologik xususiyatlarini yaxshiroq tushunish uchun uni psixologik hodisalarni o‘rganishda analitik yondashuv deb ataladigan bir qator bosqichlar shaklida taqdim etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar

xulosasiga ko'ra har bir sportchi o'zining shaxsiy hayot yo'lini belgilaydigan sport karyerasining o'ziga xos bosqichlarini ochib berishi mumkin.

1-jadval.

Sport karyerasini davriylashtirishning mantiqiy modeli

Davr/turli xildagi karyeraga muvofiq (B.G.Ananev bo'yicha)	Ko'p yillik sport mashg'ulotlari davri (V.P. Filin va boshqalar)	Sport darajasi	Sportdagi yosh toifasi	Sport razryadi va sport unvoni natijalari
Tayyorgarlik	Dastlabki sport mashg'ulotlari	Sport- sog' lomla shirish va ommaviy sport	Bolalar (kichik maktab yoshi)	Butun davrda toifasiz
	Sport ixtisoslashuvining boshlanishi			
Boshlang'ich	Tanlangan sport turida chuqur mashq qilish	Yuqori yutuqlar sporti	Bolalar va o'smirlar	BT ning 1-yilida toifasiz
				BT ning 1 yildan ko'p davrida III o'smirlar sport razryadi
Kulminatsiya	Sportni takomillashtirish: birinchi katta muvaffaqiyatlar zonasi; optimal imkoniyatlar zonasi	Sportning eng yuqori yutuqlari havaskordir. Professional sport	Bolalar va o'smirlar. Yoshlar	O'M ning 1-yilida II o'smirlar sport razryadi
				O'M ning 2-yilida II o'smirlar sport razryadi
				O'M ning 3-yilida I o'smirlar sport razryadi
				O'M ning 3 yildan ko'p davrida II va III sport razryadlari
				SKE ning 1-yilida I va II sport razryadlar
				SKE ning 2-yilida I sport razryadidan sport ustaligiga nomzod (SUN) sport unvoni
SKE ning 2 yildan ko'p davrida SUN				
Yakunlash	Sportni takomillashtirish: yuqori sport ko'rsatkichlarini saqlash zonasi	Sportning eng yuqori yutuqlari havaskordir. Professional sport	Yoshlar	Butun davrda sport ustasi (SU), xalqaro toifadagi sport ustasi (XTSU) sport unvoni

Bugungi kunda har qanday sportchi o'tishi kerak bo'lgan sport karyerasining umumiy bosqichlari haqida ozmi-ko'pmi barqaror tushunchalar mavjud. 1-jadvalda sport karyerasining to'rtta eng mashhur davriylashuvi taqdim etilgan bo'lib, ularni bitta umumiy analitik modelga birlashtirishga harakat qilganmiz.

So'nggi paragrafda esa sport karyerasining mantiqiy modeliga asoslanib shuni ta'kidlashimiz mumkinki (1-jadvalga qarang), sport karyerasining o'ziga xos xususiyatlari, ammo professional karyera bilan taqqoslaganda:


«tayyorgarlik» bosqichining erta boshlanishi (BTGda birinchi o'qitish yilida dars boshlanishining o'rtacha yoshi 10-11 yosh oralig'ida);

sport karyerasining nisbatan erta boshlanishi (BTG dagi bir yildan ko'p o'qitish yilida mashg'ulotlarda ishtirok etishning o'rtacha yoshi 12-13 yosh);

sport karyerasining nisbatan erta avj nuqtasi (yakkakurash sport turlarida, o'rtacha 15-20 yoshda);

sport karyerasi vaqt jarayoniga nisbatan professional karyeraga qaraganda ancha katta.

Agar biz sport karyerasini sintetik yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, unda sport karyerasini professionaldan ajratib turadigan bir qator xususiyatlar mavjud.



1-rasm. Sport karyerasining sintetik modeli

Sport karyerasining sintetik modeliga ko'ra, karyera ob'ektiv xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

davomiyligi, bu nafaqat sportda o'tkaziladigan musobaqalar soni, balki boshlanish vaqtini, avjiga chiqish va martaba tugashini ham o'z ichiga oladi;

ikki jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan yutuqlar darajasi:

tor ma'noda sport faoliyati natijasida (malaka, rekordlar, reytinglar, egallab olingan joylar va boshqalar);

keng ma'noda faoliyat natijasida, ya'ni. inson rivojlanishidagi yutuqlar (tajriba, kasbiy muhim fazilatlar, ijtimoiy aloqalarning kengligi, ijtimoiy mavqe, sport tufayli olingan moddiy farovonlik darajasi va boshqalar).

Bizning fikrimizcha, sport karyerasining mohiyati va tuzilishini yanada samarali tushunish uchun inqirozlarni tavsiflash modeli zarur. Sport faoliyati shu qadar xilma-xilki, sportchining kasbiy faoliyatidagi inqirozlarni tavsiflashning yagona modelini yaratish juda ob'ektiv sabablarga ko'ra juda muammoli. Bu sport karyerasining har

xil boshlanishi va tugashi, shuningdek, sport faoliyatida o'zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jismoniy va aqliy xarajatlar nuqtai nazaridan sportchining investitsiyalarining xilma-xilligi va boshqalar.

Dissertatsiyaning «**Yakkakurash sport turlarida sportchi karyerasi rivojlanganligi tadqiqi natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobda Sport karyerasining sintetik modeli asosida suhbat sxemasi ishlab chiqildi, keyinchalik u «SK-SM» so'rovnomasiga («Sport karyerasi - sintetik model») aylantirildi. U to'rt qismdan iborat: 1) sport karyerasining davomiyliigi va umumlashtirish; 2) muvaffaqiyat darajasi; 3) karyera «narxi»; 4) sport karyerasidan qoniqish. Anketaning har bir qismida - 4 dan 9 tagacha savol (ochiq, yopiq, yarim yopiq).

Suhbat va anketa natijalariga qo'shimcha ravishda, sport karyerasini sintetik tavsiflash uchun quyidagilar qo'llanilgan:

- a) mashhur sportchilarning xotiralari;
- b) sport jurnalistikasi materiallari (jurnal, gazeta maqolalari);
- v) sportchi talabalarning «Mening sport karyeram» esselari.

Umuman olganda, erkaklarning sport karyerasi ko'proq umumlashtirilgan bo'lib chiqdi. Ko'rinib turibdiki, bu o'g'il bolalar va yigitlarning sportga bo'lgan qiziqishlarining xilma-xilligi, ularning har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka intilishi bilan bog'liq. Ayollar sport bilan shug'ullanishning barqarorligi va ko'proq konsentrlangan sport karyerasi bilan ajralib turardi.

Bu erda biz sport faoliyati natijalarini keng ma'noda tahlil qilamiz, ya'ni sportchilar tomonidan sport karyerasini «qo'lga kiritish» ni va uning butun hayotiy karyeraga qo'shgan hissasini baholashni anglatadi. Muhimligi bo'yicha «o'zlashtirishlar» quyidagicha tartibga solinadi: 1) jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi; 2) hayot uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar; 3) do'stlar; 4) o'z-o'zini, o'z imkoniyatlarini bilish; 5) hayotiy tajriba; keng ijtimoiy aloqalar, qiziqarli va foydali odamlar bilan aloqalar; jamiyatdagi mavqei; 8) salomatlik; 9) jozibali ko'rinish; 10) moddiy farovonlik; 11) o'z oilasi.

«Mening sport karyeram» insholarida ko'plab sportchilar mashg'ulotlar va musobaqalarda katta kuch va energiya sarflanishini, yuqori jismoniy va ruhiy stressni ta'kidlaydilar:

Sinaluvchi K.A. (dzyu-do, sport ustaligiga nomzod) mashg'ulotning dastlabki yillari haqida: «Mashg'ulotdan so'ng uyga zo'rg'a qaytardim, ba'zida uchinchi qavatga zinapoyaga chiqishga kuchim yetmasdi. Ba'zida otamga baqirardim, u meni bag'riga olib uyga olib kirar edi».

«Mening sport karyeram» insholarida ko'p yillik sportning salomatlik holatiga ijobiy ta'siri kamdan-kam qayd etilgan. Juda salbiy baholar ham kam uchraydi. Eng tipiklari ikki tomonlama hukmlardir.

Sport karyerasidan qoniqish. Sub'ektlardan 10 balli tizimda sport karyerasidan qoniqish darajasini baholash va o'z bahosini asoslash so'ralgan. Olingan ballar, shuningdek, so'rovnomaning boshqa savollariga (davomiylik va umumlashtirilgan martaba, sport maqsadlari va ularni amalga oshirish darajasi to'g'risida, karyeraning «optimal bahosi» to'g'risida, kasbning taxminiy ijtimoiy baholari to'g'risida) sport karyerasining muvaffaqiyati va boshqalar javoblari bilan taqqoslandi.

Rufat Risqiev, boks bo'yicha jahon chempioni, ommaviy nashrlardagi intervyusidan: "... Boks bu boks. Deyarli barcha asosiy turnirlarimni qo'llarim singan holda yakunladim – jahon chempionati ham, Olimpiada ham... Bu musobaqalardagi g'alabalar nafaqat menga, balki respublikam, mamlakatim uchun ham zarur edi. Mas'uliyat shu qadar balandki, bu mening yoki murabbiylarning xayoliga ham kelmasdiki, jangsiz chekinish, g'alabani qo'ldan chiqarish mumkin edi. Natijada chap qo'limda 3 ta barmoqlar, 6 tasi esa o'ng qo'limdan singan. Doimiy og'riq, ayniqsa, o'ngda. Ko'zlar bilan bu muhim emas - ular glaukomaning taklif qilishardi. Shuning uchun, men hozircha murabbiylikdan voz kechishga majbur bo'lganman».

2-jadval.

Sportchining karyeradan qoniqishining namoyon bo'lishi


Ko'rsatkichlar	Barcha tanlamalar	5 yildan ortiq stajga ega	3-5 yil stajga ega
Sport karyerasini boshlashda yosh muhimligi	8.41 ±2.7	8.92 ±3.1	7.90 ±3.1
Sport karyerasini davoyim bo'lishligi	10.52 ±3.1	10.41 ±3.2	10.61 ±3.1
Sport turlari turlicha bo'lishi	2.39 ± 1.3	2.31 ±1.4	2.46 ±1.1
Eng yuqori natijaga egaligi	15.87 ±3.8	16.73 ± 2.9	15.22 ±4.3

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sport karyerasidan qoniqish va uning tor va keng ma'nodagi natijalari o'rtasidagi munosabatlar barqaror va o'rganilayotgan sub'ektlarning barcha kichik guruhlar uchun xos bo'lib chiqdi. Shu munosabat bilan olingan ma'lumotlarning miqdoriy tahlili sifat tahlili bilan to'ldirildi, bu «qoniqarli» va «qoniqarsiz» sportchilarning empirik tipologiyalarini taqdim etish imkonini berdi.

«Qoniqarli»lar orasida quyidagi olti turdagi sportchilar aniqlandi:

1-toifa - chindan ham yuqori sport natijalariga ega bo'lgan sportchilar (Chempionatlari, Universiadalar, milliy chempionatlar chempionlari va sovrindorlari) karyeraning «optimal bahosi».

2-toifa - qoniqishi sport yutuqlariga emas, balki keng ma'noda sport faoliyati natijalariga (sport karyerasini «qo'lga kiritish») asoslangan sportchilar. Ular oila a'zolari va do'stlari tomonidan tan olinish hissi, shuningdek, murabbiy va sport mutaxassislaridan sport karyerasining muvaffaqiyati uchun past baholarni kutish bilan ajralib turadi.



2-diagramma. Karyeradan qoniqishdagi omillar

3-toifa - «o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqargan» sportchilar Ular nisbatan past darajadagi da'volar va tegishli yutuqlar, «xarajatlar» va «sotib olishlar» muvozanati bilan ajralib turadi.

4-toifa - qoniqishni ijobiy his-tuyg'ular, motorli faoliyatdan zavqlanish, o'yinlar, raqobat, do'stlar bilan muloqot qilish va boshqalar bilan baholashda rahbarlik qiladigan sportchilar. Ushbu kichik guruh sportchilarining malakasi sport ustaligiga nomzoddan yuqori emas.

5-toifa - da'vogarlik darajasi past bo'lgan sportchilar.

6- toifa - agar ularning natijalari da'volar darajasiga to'g'ri keladigan yoki undan oshib ketgan bo'lsa, «xarajatlari» past bo'lgan sportchilar. Ular, asosan, tabiiy iste'dod tufayli, shuningdek, omad, omad evaziga natijalarga erishganiga ishonishadi.

Strukturaviy yondashuvning mohiyati mansabni sport faoliyatida "akme" ga erishishning yaxlit, uzluksiz jarayoni sifatida, uning psixologik tuzilishi va sportchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqishdan iborat. Strukturaviy modelning asosini sportchi butun sport faoliyati davomida egallagan sport faoliyatining psixologik tuzilishi tashkil etadi.

Agar sintetik model sport karyerasining eng umumiy va muhim xususiyatlarini tartibga solishga va sportchining qoniqish (norozilik) omillarini yoritishga qaratilgan bo'lsa, analitik model esa sport karyerasi va insonning hayot yo'li o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa, keyin tizimli model keng va tor ma'noda sport faoliyati natijalarining psixologik determinantlarini tartibga soladi, sport karyerasining shaxsning ijtimoiylashuviga va uning "akme" ga erishishga qo'shgan hissasini ko'rsatadi.

Sport faoliyatining psixologik tuzilishi quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi: motivatsiya (ehtiyotlar, motivlar, maqsadlar); faoliyat vositalari (usullari, ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar, faoliyatning individual uslubi); tor va keng ma'nodagi sport faoliyati natijalari (ya'ni sportchining rivojlanishidagi haqiqiy sport yutuqlari va yutuqlari). Natijalar, aslida, barcha harakatlar nima uchun amalga oshiriladi. Shuning uchun ularga qanday erishiladi, degan savol nafaqat nazariya, balki sport amaliyoti uchun ham eng muhim hisoblanadi.

